

**ШАХАРЛАРНИ КЎКАЛАМЗОРЛАШТИРИШДА ИНТРОДУКЦИЯ ҚИЛИНГАН  
ДАРАХТЛАРНИНГ АХАМИЯТИ.**

**ВАЖНОСТЬ ИНТРОДУЦИРОВАННЫХ ДЕРЕВЬЕВ В ОЗЕЛЕНИИ ГОРОДОВ  
THE IMPORTANCE OF INTRODUCED TREES IN URBAN GREENING**

Эшмуродова Мавлуда Қодиалиевна

Самарқанда давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар  
университети катта ўқитувчиси [eshmurodovamavluda@mail.ru](mailto:eshmurodovamavluda@mail.ru).

Хидиров Ахмад Умирбоевич

Самарқанда давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар  
университети 2-босқич талабаси [nasimovmamurjon@gmail.com](mailto:nasimovmamurjon@gmail.com)

Madina Mirzakarimova Ilhomjon qizi

Тошкент давлат аграр университети Самарқанд филифли 2-босқич талабаси  
[madinamirzakarimova00@gmail.com](mailto:madinamirzakarimova00@gmail.com)  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7190241>

**Annotatsiya.** O'simliklar tabiiy arealdan yangi hududlarga Introduksiya qilinganda turlar (navlar)ning hayotchanligi va Introduksianing maqsadi bo'lgan qimmatli xo'jalik belgilarining yaxshilanishi yuz beradi: meva hosildorligi ko'tariladi, fitomassa ko'payadi, muhitning turli omillariga, kasallik, zararkunandalarga chi-damliligi ortadi

**Kalit so'zlar:** areal, introduksiya, nav, xayotchanlik, xo'jalik belgisi, fitomassa, genetika.

**Аннотация.** При интродукции растений из естественного ареала в новые районы улучшаются жизнеспособность видов (сортов) и ценные хозяйственныe признаки, являющиеся целью интродукции: повышается урожайность плодов, увеличивается фитомасса, устойчивость к различным факторам внешней среды, болезней и вредителей увеличивается.

**Ключевые слова:** интродукции, ареала, хозяйственныe хозяйственныe, фитомасса, устойчивость, болезней, вредителей.

**Abstract.** When plants are introduced from their natural range to new areas, the viability of the species (varieties) and the valuable economic characteristics that are the goal of the introduction are improved:

**Key words:** fruit yield increases, phytomass increases, resistance to various environmental factors, diseases, and pests increases.

O'simliklarni introduksiya qilish nafaqat ularning xo'jalik uchun qimmatli belgilarni ko'tarilishiga bundan tashqari ularning tarqalish arealini kengayishiga va yillar davomida yangi muxit sharoitiga moslashish natijasida tur doirasida yangi populyasiyalarni kelib chiqishag yordam beradi. «O'z markazlari»dan Introduksiya etilishi o'simliklar arealini ma'lum doirada kengaytirdi va bu borada ayrim o'simliklarning bir-lamchi markazlar bilan bo'lgan aloqasi uziladi. Mas, yer yong'oqning vatani — Shim. Argentina, biroq hozir

**II International scientific and practical conference  
"SUSTAINABLE FORESTRY"**

14-15 October 2022 | scientists.uz

yer yong‘oq eng ko‘p ekvatorial Afrikada yetishtiriladi. Kartoshkaning vatani — Jan. Amerika bo‘lsa xam, u dunyoning ko‘pgina davlatlarida asosiy oziq mahsuloti hisoblanadi.


Turli o‘simliklar Introduksiya qilish maqsadida materiallar yig‘ish maqsadlarida madaniy o‘simliklarning birlamchi va ikkilamchi kelib chiqishi markazlariga ilmiy eks-peditsiyalar amalga oshiriladi. Masalan O‘zbekiston FA O‘simliklar eksperimental biologiyasi in-tida g‘o‘zaning yovvoyi turlarini yig‘ish maqsadida akad. A. Abdullaev boshchiligidida 1975-y. da Meksika, 1984-y. da Peru, 1989—90 y. larda Shri Lanka, Hindiston, Xitoy, 1997-y. da Avstraliyaga ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etilgan va malga oshirilgan. Botanika va seleksiya muassasalarida o‘simliklar Introduksiyasi va so‘ngra ularni iqlimlashtirish ishlari olib boriladi.

Mamlakatimizda 20-asrning 30 – yillariga kelib yangi tashkil etilgan ilmiy tashkilotlarda aniq ilmiy reja asosida jahon madaniy va yovvoyi o‘simliklarning xilma-xil turlarini yigish, Introduksiya qilish ishlari boshlandi . Xozirgi kunga kelib O‘zbekiston Genetikava o‘simliklar eksperimental biologiyasi, Botanika ilmiy tekshirish instituti va Botanika bog‘ida Introduksiya qilingan va mahalliy navlar asosida turli ekinlarning kolleksiyalari tashkil etilgan.

Dunyo mamlakatlari o‘rtasida ilmiy hamkorlik munosabatlari kengaygan bugungi kunda Introduksiyaning vazifasi o‘simliklarni ilmiy asosda yangi o‘lkalarga jalb etish va mavjud ekinlar nav tarkibini zamонави sanoat navlari bilan boyitishdan iborat.

Turli xayotiy shaklga ega bo‘lgan o‘simliklarni itroduksiya qilishdan alovida maqsad bo‘ladi.Masalan M a n zarali daraxt va butalarga yaproqli, igna bargli, doim yashil va barg to‘kuvchi o‘simliklar tanlab olinadi . Xiyobon, ko‘chalarga, hovuz va ko‘l bo‘ylariga eman (dub), kashtan, chinor, akatsiya, oq qayin, majnuntol, terak, sarv, oq qarag‘ay, shamshod, do‘lana, archa; shiypon va ayvon tevaragiga ilashib o‘suvchi — tok, chirmoviq, butalardan atirgul, siren kabi o‘simliklar ko‘proq ekiladi.[1]

So‘ngi yillarda Respublikamizning yuqorida keltirilgan va diqqatga molik joylariga manzaralari daraxt va butalar er yuzining turli mamlakatlaridan introduksiya qilib iqlimlashtirilmoqda. Introduksiya amalga oshirilayotganda o‘simliklarning nafaqat xushmanzaraligiga ularning dorivorlik xususiyatiga ham alohida e’tibor berilmoqda Masalan quyida keltirilgan bir nechta manzaralari o‘simliklar Respublikamiz o‘simliklar xilma xillik fondini kengaytirish bilan birga kishilarga esetik zavq beradi va dorivorlik xamda boshqa foydali belgilari bilan ajralib turadi.[2]



*foydali qayin-Betulaceae*

Foydali qayin(Betulaceae) toj va ochiq barglarning go‘zalligi uchun manzaraliligi, asalarichilikda gulchang tashuvchanligi, - diuretik, bakteritsid, yaralarni davolovchi va antipiretik va qayin kurtaklaridan moy ekstrakti - dermatologik vositalar sifatida ishlatilishi, sharbati qonni tozalash hususiyatiga egaligi uchun keng foydalilanadi.[5].

**II International scientific and practical conference  
"SUSTAINABLE FORESTRY"**  
14-15 October 2022 | scientists.uz



*Qizil eman- quercus rubra*

Qizil eman- *quercus rubra* o‘zidan Fitonsid ajratishi va landshaftbob daraxt bo‘lgani uchun ko‘chalarda xiyobon va bog‘larda manzarali o‘simlik sifatida ekilishi bilan ajralib turadi. Sovuqqa chidamliligi, sovuq va zararkunandalarga chidamliligi ucnun, turli xil muhitdagi tuproq sharoitlariga moslasha olishi sababli keng arealda tarqalgancha. Qizil eman noyob meva hosil qilganligi uchun tabobatda, yog‘ochbop va mebelboplari uchun o‘rmon ho‘jaligida ishlataladi[5].



*Ginkgo biloba*

Ginkgo barglari noyobligi uchun dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tan olinadi va qadrlanadi.Ular qimmatbaho dori- darmonlarni ishlab chiqarishda, shuningdek xalq tabobatida qo’llaniladi. Uyda tabiblar spirtli ichimliklar va suv infuzionlari , o‘simlik choyi tayyorlaydilar, bu odamlar uchun turli xil import qilingan dori darmonlarga qaraganda ancha arzonroq [4].



*Soxta kashtan -Aesculus hippocastanum*

Bu oilaning vakillari daraxt o‘simliklardir.

Barcha turlari nihoyatda xushmanzara bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun ko‘kalamzorlashtirish ishlarida ular katta ahamiyatga ega. Soxta kashtanning barcha turlarini shahar ko‘chalariga ekish tavsiya qilinadi. Toshkent shahri ko‘chalarida, parklarida soxtakashtan ko‘plab o‘stiriladi.

## **REFERENCES**

1. Atabaeva X.N., Umarova N.S. Lekarstvennaya rasteniya.
2. Ahmedov O. Ergashev A., Abzalov A.A. Dorivor o`simliklar va ularni yetishtirish texnologiyasi. Darslik. Toshkent. 2008. 232 b
3. Данченко А. М., Трофименко Н. М. Экология семенного размножения берёзы ботаника. Энциклопедия «Все растения мира» ст— 142—144.
4. Синадский Ю. В. Берёза её вредители и болезни Гл. ботанич. сад. —Наука, 1973. Ст— 218 .
5. To‘xtaev B.Yu., Maxkamov T.X., To‘laganov A.A., Mamatkarimov A.I., Maxmudov A.V., Allayarov M.O. Dorivor va oziq-ovqat o`simliklari plantatsiyalarini tashkil etish va xom ashyni xarid qilish bo`yicha ko`rsatmalar. -Toshkent, 2015. 144 b.